

SARIMSOQPIYOZ YIG'ISHTIRISH UCHUN TAJRIBAVIY QURILMA


X. G'. Abdulxayev,
N. F. No'monov

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy vazifasi uning barcha sohalari samaradorligini oshirish orqali respublikamiz aholisini arzon va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoat korxonalarini esa xom-ashyo bilan to'liq ta'minlash hisoblanadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda respublikamizning dehqon va fermer xo'jaliklarining 47,1 ming gektardan ortiq maydonlarida sarimsoqpiyoz yetishtiriladi. Sarimsoqpiyozni yetishtirishda uni ekish, qator oralariga ishlov berish, oziqlantirish va kimyoviy ishlov berish kabi ko'plab agrotadbirlar mexanizatsiyalashgan bo'lib, texnika vositalari tomonidan amalga oshiriladi. Ammo yetishtirilgan sarimsoqpiyoz hosilini yig'ishtirib olish asosan qo'l mehnati orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida hosilni yig'ishtirib olish jarayonining kechikishi va sifatini buzilishi hamda tayyor mahsulot tannarxini oshishiga olib kelmoqda.

Sarimsoqpiyoz asosan Markaziy Osiyo, Yovvoyi holda Hindiston, O'rta yer dengiz atroflarida, Qozog'iston, Sibir, Kavkaz va yaqin Sharqda uchraydi. O'zbekistonda yovvoyi sarimsoqpiyoz hosilini yig'ishtirib olish uchun u mamlakatlarda maxsus qurilmalar va texnika vositalari yaratilgan bo'lib, sarimsoqpiyoz yetishtiriladigan maydonning katta yoki kichikligiga qarab turli xil konstruksiyadagi texnika vositalaridan foydalaniladi. Ammo ushbu texnika vositalarining qimmatligi va respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga mos kelmasligi uchun ularni qo'llashga to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda va o'tkazilgan ilmiy-adabiyotlar hamda patent-informatsion izlanishlarning tahlillari asosida Namangan muhandislik-qurilish institutida sarimsoqpiyoz yig'ishtirish mashinasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi (rasmga qaralsin).



1-rama; 2-pichoq; 3-oldingi tayanch g'ildirak; 4-yo'naltirgich; 5-kardanli uzatma; 6-poya qisuvchi lentali uzatma; 7-diskli pichoq; 8-bunker;
9-orqangi tayanch g'ildirak; 10-reduktor

Sarimsoqqiyoz yig'ishtirish mashinasining konstruktiv sxemasi

Mashina rama, unga o'rnatilgan pichoqlar, oldingi va orqangi tayanch g'ildiraklar, yo'naltirgichlar, kardanli uzatma, lentali uzatma, taroq-sidirgich, bunker hamda reduktordan iborat.

Taklif etilayotgan mashina dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan sarimsoqqiyozni qulay sharoitda tez va sifatli nobud qilmasdan yig'ishtirib olish imkonini beradi.

Mashina bir o'tishda qator oralarining kengligi 60-70 sm bo'lgan ikkita qatordagi sarimsoqqiyozni kovlaydi va ularni poyalaridan ajratib bunkerga, poyalarni esa dala yuzasiga tashlaydi. Sarimsoqqiyoz kovlab olish texnologik jarayoni quyidagicha kechadi: traktorga tirkalgan mashina dalaga kirishdan oldin kerakli kovlash chuqurligiga sozlanadi va qator oralariga moslab yurgiziladi. Bunda pichoq-kovlagich 22-25 sm gacha chuqurlikda sarimsoqqiyoz ildizlarini qirqib ketadi, yo'naltirgich yeryong'oq tuplarini uyumlab lentali uzatmaga uzatadi, u lentali uzatma sarimsoqqiyoz tuplarini qisib, ularni ma'lum burchak ostida yuqoriga qarab harakatlantiradi hamda bu jarayonda sarimsoqqiyozlar orasida qolib ketgan tuproqlar silkinish natijasida tushib ketadi hamda ularni tupidan ajratib oladi. Ajratib olingan sarimsoqqiyozlarni bunkerga, poyasi esa dala yuzasiga tushadi.

O'tkazilgan dastlabki sinovlarda ishlab chiqilgan qurilma sarimsoqqiyozni kovlab va ularni poyasidan ajratishni talab darajasida bajarishini ko'rsatdi hamda bu jarayonlardagi qo'l mehnati batamom bartaraf etishni ta'minlaydi.

Xulosa

Ishlab chiqilgan mashina sarimsoqqiyozni kovlab va dukkaklarini poyasidan ajratish jarayonini talab darajasida bajarishini ko'rsatdi hamda bu jarayonlardagi qo'l mehnati batamom bartaraf etishni ta'minladi.